

TILSHUNOSLIKKA OID TERMINOLOGIK LUG'ATLAR XUSUSIDA

Ixtiyor Ermatov

f.f.d., prof. GulDU

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida ilk lingvistik lug'atlar tuzishga urinishlar, dastlabki lingvistik lug'atlar, lingvistik lug'atlarning tuzilishi va ularda lug'at maqolalarning berilishi, tilshunoslik sohasiga oid tuzulgan lug'atlar haqidagi masalalar yuzasidan fikr yuritiladi. Tilshunoslikka oid lug'atlar maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: termin, atama, lug'at, lug'at maqola, lingvistik lug'at, leksika, ilmiy leksika.

Ilm-fanning barcha sohalari bo'yicha davr talablariga javob beradigan terminologik tizimlarni yaratish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, ularni amalga oshirish nihoyatda murakkab, katta kuch talab qiladigan ish ekanligi ham shubhasiz.

Jumladan, terminologiyaga oid barcha ishlarning muvaffaqiyatli hal etilishida har bir sohaga oid terminlarni to'la qamrab olgan terminologik lug'atlarni, ayniqsa, izohli terminologik lug'atlarni tuzish va nashr etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday lug'atlarda har bir terminning o'zi atayotgan tushunchaning, narsa-hodisaning mohiyatini qay darajada to'g'ri, to'liq va aniq ifodalashini belgilash muhimdir. Bu bilan har bir terminning talabga qanchalik muayyan javob berish-javob bermasligi aniqlanadi.

Jahon tilshunosligida terminologiya va uning nazariy asoslari, tilshunoslik terminlari va ularning shakllanishi, tartibga solinishi kabi masalalar V.V.Vinogradov [3, 560], A.A.Reformatskiy [18, 54], O.S.Axmanova [1, 608], V.P.Danilenko [4, 225] singari olimlarning tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan. Ayni shunday masalalar, tilshunoslik terminosistemalarining shakllanishi va taraqqiyoti masalalari, tilshunoslik terminologiyalaridagi kamchilik va nuqsonlar, sinonimiya va uni bartaraf etish muammolari ozarbayjon [5, 63], qozoq [6, 83], qirg'iz [13, 65], qoraqalpoq [11, 66] kabi asosiy turkiy tillar hamda tojik tili [15, 124] terminologiyalarida ham tadqiq etilgan.

O'zbek tilshunosligida esa A.G'ulomov [20, 56], V.V.Reshetov [17, 119], A.Hojiyev [26, 144], L.V.Reshetova [22, 56], D.Xudoyberganova [21, 44], I.Ermatov [19, 160] va boshqalarning monografiya, dissertatsiya va lug'atlarida yoritilgan.

Turkiy tillar tovush tizimining boshqa tillardan, xususan, arab va fors-tojik tillaridan farqli tomonlari Mahmud Koshg'ariy va Alisher Navoiy tomonidan bayon qilingan. Xususan, Alisher Navoiy turkiy (o'zbek) tilning o'ziga xos unililar tizimi haqida ham fikr yuritgan, lekin *fonetikaning* alohida tilshunoslik sohasi sifatida shakllanishi XX asr boshlariga to'g'ri keladi [10, 387].

O'zbek tilida tilshunoslik terminlarining yaratilishi va unifikatsiya qilinishida Ayub G'ulomning 1940-yilda chop etilgan ilmiy ishi alohida o'rin tutadi [20, 56].

Ayub G'ulomning "O'zbek tilidan programma va metodik ko'rsatma. Sirtqi pedagogika bilim yurtlari uchun qo'llanma"si Maorif xalq komissarligi ruxsati bilan

Toshkentda 1940-yilda chop etilgan. Ushbu qo'llanmada tilshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati berilgan. Olim bu lug'ati orqali ko'plab ruscha tilshunoslik terminlarini o'zbek tiliga olib kirgan bo'lib, ular asosan, fonetika oid terminlardir: *nutq organlari, nafas apparati, artikulyatsiya o'rni, artikulyatsiya usuli*.

Olim lug'atda ko'pgina tilshunoslik terminlarini o'zbek tiliga kalkalash orqali ham o'zlashtirgan. Masalan: *gortan – bo'g'iz, labializovannie glasnie – lablashgan unlilar, zvonkie zvuki – jarangli tovushlar, gluxie zvuki – jarangsiz tovushlar, slog – bo'g'in, udarenie – urg'u, osnova – asos, pryamaya rech – ko'chirma gap, svyazka – bog'lama* va boshqalar.

Ayub G'ulomning "O'zbek tilidan programma va metodik ko'rsatma" sig'a ilova qilingan o'zbekcha-ruscha tilshunoslik terminlari lug'atida fonetika va sintaksisga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlar bor. "Lug'ati" da sintaksisga doir tushunchalarni ifodalovchi *darak gap, so'roq gap, undov gap, ikkinchi darajali bo'laklar, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, yig'iq gap, gap bo'laklari, yoyiq gap* terminlari berilgan. Bu terminlarning ruscha varianti ham bor, zarurat bo'lmagani uchun ruscha terminlarni keltirmadik.

Bu o'zbek tilshunosligidagi dastlabki o'zbekcha-ruscha tilshunoslik terminlari lug'ati edi. Ushbu lug'atga kiritilgan tilshunoslik terminlari fonetika, morfologiya, sintaksis bo'limlari tartibida berilgan. Biz ham lug'atdagi terminlarni shu tartibda hamda amalda ishlatilishi va ishlatilmasligi jihatiga ko'ra tavsiflaymiz:

Amalda ishlatilayotgan fonetika terminlari: *unli tovushlar, undosh tovushlar, jarangli tovushlar, jarangsiz tovushlar, bo'g'in, urg'u*.

Amalda ishlatilayotgan morfologiya terminlari: *ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar, ravishdosh (fe'l holi), sifatdosh (fe'l sifat), tub so'z, yasama so'z* va boshqalar.

Amalda ishlatilayotgan sintaksis terminlari: *darak gap, so'roq gap, ko'chirma gap, o'zlashtirma gap, undov gap, sodda gap, gap bo'laklari, ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi* va boshqalar.

Ayub G'ulom qo'llagan bir qancha terminlar o'zbek tilshunosligining keyingi taraqqiyotida mos muqobillarining topilgani tufayli hozirgi paytda ishlatilmaydi. Masalan: *qaytalangan unlilar, qaytalangan undoshlar*. Mazkur terminlarda ifodalangan lisoniy tushunchalarni nomlash uchun hozirda *qo'sh unlilar, qo'sh undoshlar* terminlari qo'llanadi va ular lisoniy tushuncha mohiyatini aniq, to'liq aks ettiradi. Zotan, *qaytalangan* so'ziga nisbatan *qo'sh* degan so'z tovushlarning ikkita ekanligini aniq ifodalaydi, qolaversa, keyingi termin (*qo'sh*) da qisqalik va lo'ndalik bor.

Ayub G'ulom lug'atida:

a) sodda so'z shaklidagi terminlar: *ravish, sifatdosh, ravishdosh, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama*;

b) birikma terminlar: *mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, yasama so'z, qo'shma so'z, undov so'zlar* [20, 56].

1980-yilda A.Hojiyev va L.Reshetova hammuallifligida "O'zbek tili grammatik terminlarining qisqacha izohli lug'ati" [22, 56], 1985-yilda esa "O'qituvchi" nashriyotida A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" [26, 144] nashr etilgan edi. A.Hojiyev ushbu lug'atini qayta ishlab,

mukammallashtirish yo'ldan bordi va o'n bir bosma taboqli "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" [27, 168] yuzaga keldi. Ushbu lug'at "So'zboshi", "Lug'atning hajmi va tuzilishi", "Shartli qisqartmalar", "Asosiy qism" (alifbe bo'yicha joylashtirilgan terminlarning izohi), "Ko'rsatkich" (qisqacha o'zbekcha-ruscha terminologik lug'at) kabi qismlardan iborat bo'lib, terminlar quyidagicha izohlangan:

Bog'lama. Fe'l bo'lmagan so'zni fe'lga xos ma'no va vazifaga moslovchi yordamchi fe'l...(24-bet).

Nuqta. Darak gap va tinch ohang bilan aytiladigan undov gap oxirida, shartli qisqartmalarda qo'llanadigan tinish belgisi (.) [27, 73].

So'zshakl. So'zning nutqda qatnashadigan muayyan ko'rinishi [27, 98].

Muhimi shundaki, lug'atda har bir asosiy terminga mukammal va muxtasar izohlar berilgan.

Lug'atning hajmi va tuzilishi haqida shunday deyilgan: "Lug'at so'zligini belgilashda, ya'ni u yoki bu termini lug'atga kiritish-kiritmaslikda uning o'zbek tiliga oid adabiyotlarda, tilshunoslik kurslari bo'yicha o'qish-o'qitish ishlari jarayonida qo'llanish-qo'llanmasligiga, qo'llanish darajasiga e'tibor berildi. Aniqroq qilib aytganda, o'zbek tilida bor, shu tilga xos hodisalarni va barcha tillar uchun umumiy hodisalarni ifodalovchi terminlargina lug'atga kiritildi" [27, 5].

Lug'atda *aniqlovchi, birlik, ko'plik, bog'lovchi, bog'lanma, yozuv, olmosh, ot ko'makchilar, ko'chim, so'z, til, urg'u, tovush, undov* kabi asli o'zbekcha, *ibora, imlo, lug'at, maqol, me'yori, nutq, nuqta, sifat* kabi asli arabcha, *nom, ravish, gap* singari forscha-tojikcha, *fonetika, morfologiya, sintaksis, termin, suffiks, prefiks, infiks, pleonazm, polisemiya, parafraza, period* kabi ruscha-baynalmilal terminlar o'z ifodasini topgan.

Shu bilan birga, lug'atda *birlik son, ko'plik son, ajratilgan bo'lak, ayiruv bog'lovchilari, anqilovchili tuzilma, jo'nalish kelishigi, kiritma so'z* singari o'zbekcha birikmalar, aniqlovchi komponenti o'zbek tili qoidalariga moslashtirilgan holda berilgan.

Ruscha-baynalmilal aniqlanmish komponentli birikmalar *affiksal so'z yasalishi, dialektal lug'at, agglyutinativ tillar, lokativ gap, leksik ma'no, morfologik so'z, paradigmatic qator, politonik urg'u, ritorik so'roq* ko'rinishida, aksincha, ikkinchi komponenti ruscha-baynalmilal bo'lgan *so'zning valentligi, so'zning variantlari, til evolyutsiyasi, tovush tembri* singari izofa ko'rinishidagi birikmalar ham mukammal va ixcham izohlar bilan ta'minlangan.

Ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga o'tishda va undan keyin jamiyat hayotida katta o'zgarishlar yuz beradi. Bunday o'zgarishlar tilda ham aks etadi, chunki til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi. Shunisi ham borki, jamiyat qanchalik taraqqiy etmasin, tildagi narsa-hodisalar nomi ma'lum muddatgacha o'zgarishsiz saqlanadi. Tushunchalar yo'qolishi yoki boshqa nomda atalishi bilan oldingi so'zlar ham yo'qola boshlaydi. Shuning uchun ham tilda birdaniga uzilishlar ro'y bermaydi.

O'zbek tilining ayrim terminologik tizimlari shakllana boshlash tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tarix, adabiyot, musiqa, tibbiyot, astronomiya, kimyo,

matematika kabi sohalarda yaratilgan asarlarda shu sohalarning terminlaridan foydalanilgan, albatta. Masalan, bir guruh lug'atshunoslarning ta'kidlashicha, "algoritm so'zi IX asrda yashagan ulug' o'zbek olimi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy ismidan kelib chiqqan. Arabcha *al-Xorazmiy* "xorazmlik" degan ma'noni anglatadi yoki lotinlashtirilgan *algorithm* ko'rinishida bo'ladi" [28, 256]. Biroq o'zbek tili tilshunoslik terminlarining paydo bo'lishi, yasalishi tarixi yuqoridagi sohalar terminlariga nisbatan yaqin o'tmish mahsulidir.

Mazkur lug'atning ijobiy tomonlaridan biri unda ruscha-baynalmilal terminlarning etimoni ham berilganligidir. Masalan:

Leksika (yun. *lexikos* – so'zga oid, lug'aviy). [izoh].

Adyunktsiya (lot. *adjunctus* – birga qo'shilgan). [izoh].

Defis (nem. *Dyevis* < lot. *divisio* – bo'linish). [izoh] va boshqalar.

Lug'at maqolalarining tuzilishi haqida shunday deyilgan: "Lug'at maqolasidagi tarkibiy qismlardan yana biri terminga berilgan izohni tasdiqlovchi misollardir. Lekin izohni isbotlovchi misol barcha lug'at maqolalarida bo'lavermaydi, balki ma'lum terminlar uchun tuziladigan lug'at maqolalarigina misol talab etadi" [27, 6]. Masalan:

Bog'lama. [izoh]. Masalan, *Tolib rassom bo'ldi, Tolib rassom bo'lyapti, Tolib rassom bo'lmoqchi* gaplarida *bo'l* yordamchisi *rassom* so'zi bilan qo'llanib, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarining ifodalanishi uchun xizmat qiladi, kesimda ana shu ma'nolarning voqelanishiga imkon yaratadi.

Dialektizmlar. [izoh]. Masalan, *jaman* (yomon), *choch* (soch) – fonetik dialektizm; *patinjon* (pomidor), *bolish* (yostiq) – leksik dialektizmlar; *ko'chaga ko'rdim* (ko'chada ko'rdim) – grammatik dialektizm kabi.

Ot-kesim [izoh]. *Hammasiga sababchi – a k a m. Komandirning menga mehribonchiligi ayniqsa y a x sh i* (G'.G'ulom). *Endi marra – b i z n i k i* (M.Ismoilij). *Maqsadim – m a l a k a o sh i r i sh. Ot kimniki – m i n g a n n i k i*.

Lug'atdan *tub asos, gap, so'z, kinoya, lug'at, majoz, matn, maqol, nutq, yasalma, bo'yoqdorlik, yozuv, jarangsizlik, izohlanmish, kelishik, kesim, ko'chim, ko'rsatkich, lablanish, portlash, ravishdosh, sifatdosh, undosh, sifatlanmish, kammahsullik, fe'l-kesim, ot-kesim, o'z so'z, qo'sh inkor* kabi terminlar ham joy olgan. Bu tilshunoslik terminlarining yasalishi xususida muayyan tasavvurlar hosil qila oladi.

Ma'lumki, lisoniy tushunchalar *birikma terminlar* vositasida ham ifodalanadi. O'zbek tilining terminologik tizimlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarda ham ikki va undan ortiq so'zlarning sintaktik munosabatiga asoslangan terminlar *birikma terminlar* deb ataladi, terminologik tadqiqotlarda ham mazkur termin barqarorlashib ulgurgan. Shu bois biz ham *birikma termin* atamasidan foydalandik. Terminologik tizimlar tarkibining asosiy qismini birikma terminlar [4, 131] tashkil etadi. Chunki ko'plab tadqiqotlarda, soha tushunchalarini sodda tub yoki yasama sodda terminlar bilan nomlashning iloji bo'lmaganda birikma terminlar yaratilgan. Xususan, A.Hojjiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"dagi 1002 ta termindan 462 tasi sodda so'z, 540 tasi birikma shaklidagi termindir [19, 65].

Sobiq sho'rolar davrining "...so'nggi yillarigacha, boshqa fanlar qatori, ona tilining o'qitilishiga ham yetarli e'tibor berilmadi" [9, 56]. Maktab ona tili darsliklari

ham bundan mustasno emas. Mustaqillikkacha ham ona tili darsliklarining talabga javob bermasligi haqida fikrlar bildirila boshlangan edi. "O'qituvchilar gazetasi"ning 1987-yil 18-martdagi sonida A.Hojiyevning "Darsliklar talab darajasida bo'lsin" maqolasi ayni muammoga bag'ishlangan bo'lib, unda o'sha davr darsliklariga to'g'ri va xolis baho berilgan edi. Tilshunoslik terminologiyasidagi muammolar ham yetarli bo'lib, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ona tili darsliklarini takomillashtirish, ularga ilm-fan yutuqlarini tatbiq etish kun tartibidagi asosiy masala etib belgilandi [19, 98].

O'zbek tilshunoslik terminologiyasini 60-yillardan keyin o'rganish, takomillashtirish va tartibga solish A.Hojiyev nomi bilan bog'liq. U o'zining o'zbek tilining deyarli barcha sathlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida, tilshunoslik terminlari bo'yicha tuzgan lug'atlarida tegishli terminlarni to'g'ri yaratish va to'g'ri qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar bergan, tom ma'nodagi zamonaviy o'zbek tilshunoslik terminologiyasini shakllantirgan [19, 52].

O'zbek tilshunosligi hamda tilshunoslik terminologiyasi tarixini o'rganishda Y.Tojiyev, K.Kadirov, Sh.Bobomurodova, T.Tog'ayev, B.To'ychiboyev, M.Qurbonova, I.Ermatov va boshqalarning ham alohida o'rni bor.

2013-yilda mualliflar N.Mahkamov va I.Ermatovlar tomonidan yaratilgan "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" 1000 nusxada "Fan" nashriyotida chop etildi.

Har bir sohaga oid terminlarni imkoni boricha to'la qamrab oladigan, hodisaning mohiyatini to'g'ri, to'la va aniq aks ettiradigan terminlarni belgilaydigan izohli terminologik lug'atlarni yaratish shu sohalar mutaxassislarining eng birinchi galdagi vazifalaridandir. Xuddi shu maqsadda tuzilgan Akademik A.Hojiyevning 1985-yilda "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" yagona va eng muhim manbaa sifatida foydalanib kelinmoqda.

Salkam o'ttiz yildan buyon bu izohli lug'at oliy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi hamda umumta'lim maktablari o'qituvchi va o'quvchi-talabalari tomonidan foydalanib kelinmoqda.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan lug'at qayta ishlanib nashr etildi. (A.Hojiyev. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati", "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, Toshkent, 2002).

Mustaqillik davrida o'zbek tili taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, 1997-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan o'qish va o'qitish ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Natijada, yangi dastur va darsliklar yaratildi. Jumladan, ona tili darsliklarining yangi avlodi yuzaga keldi.

N.Mahkamov va I.Ermatovlar tomonidan yaratilgan "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" oldingi izohli lug'atlardan farqi, birinchidan, umumta'lim maktablari, akademik litsey hamda kasb-hunar maktablarining o'quvchilari uchun yaratilganligi bo'lsa, ikkinchidan, izohlar umumta'lim maktablari, akademik litsey hamda kasb-hunar maktablari uchun yaratilgan ona tili darsliklari asosida berilganligidadir.

Izohli lug'atga XX asr boshlarida ilk yaratilgan ona tili darsliklarida qo'llanilgan terminlardan hozirgi kunda amalda bo'lgan ona tili darsliklarigacha bo'lgan davrdagi qo'llanilgan va qo'llanilayotgan asosiy terminlar kiritilgan.

Lingvistik terminlarga izoh berishda e'tibor, asosan, hozirgi amalda bo'lgan ona tili darsliklaridagi terminlarga qaratilgan va ularga izoh berilgan. O'tmishda yaratilgan, lekin hozirgi davr darsliklarida qo'llanilmagan terminlar ham kiritilgan hamda izoh berilgan. Chunki barcha ona tili darsliklaridagi terminlar qo'llanish doirasining ko'lami va davriyligidan qat'iy nazar, shubhasiz, keyingi davr lingvistik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti uchun o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Ushbu lingvistik terminlarning izohli lug'atiga bir yarim mingdan ortiq terminlar qamrab olingan va izohi berilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, lug'atlar yaratilmaguncha terminologik tizimdagi har xil salbiy hodisalar, masalan, ayni bir tushunchani ifodalash uchun birdan ortiq terminning qo'llanishi va, aksincha, bir necha (boshqa-boshqa) hodisalarni ifodalash uchun bir terminning qo'llanishi, hodisaning mohiyatini to'g'ri, to'la va aniq ifodalay olmaydigan terminlarning mavjud bo'lishi kabi va boshqa salbiy hodisalar davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с.
2. Амансарыев Ж. Туркмен дилининг лингвистик терминлерини дузгуне салмак хакында. – Ашгабад, 1951. – 20 б.
3. Виноградов В.В. Избранные труды: Исследования по русской грамматике. – М.: Наука, 1975. – 560 с.
4. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: 1977. – 225 с.
5. Дилчилик терминлари луғати / редакторлари: Р.Рустёмов, М.Ширэлиев, Ж. Эфэндиев. – Баку, 1957. – 63 б.
6. Кенесбаев С., Жанузақов Т. Лингвистикалық терминдердің қысқаша орысша-қазақша создiгi. – Алматы, 1956. – 83 б.
7. Кенесбаев С., Жанузақов Т. Русско-казахский словарь лингвистических терминов. – Алма-ата, 1966.
8. Маҳкамов Н., Ерматов И. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Т.: Fan, 2013. – 144 б.
9. Мирзақулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 56 б.
10. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 2-жилд: Лингвистик таълимотлар тарихи. – Т.: Akademnashr, 2012. – 448 б.
11. Насыров Д.С., Бекбергенов А., Жарымбетов А. Русша – қазақалпақша лингвистикалық терминлар созлиги. – Ноқис, 1979.
12. Оруджев А.А. Основные принципы составления терминологии // Труды Института языка АН Азербайджана, т. I. – Баку, 1967.
13. Орузбаева Б.О. Русско-киргизский словарь лингвистических терминов. – Фрунзе, 1972.

14. Пирниязов К. Формирование и развитие каракалпакской лингвистической терминологии. Автореф. дисс. ...канд. филол. нук. – Алмата: 1981. – 28 с.
15. Рустамов М. Таджикская грамматическая терминология. – Душанбе: Дониш, 1972. – 124 с.
16. Решетова Л.В. Грамматическая терминология узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1964. – 22 с.
17. Решетов В.В. Краткий справочник по лингвистической терминологии. – Т., 1950. – 119 с.
18. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология // Вопросы терминологии. – М.: Изд. АН СССР, 1961. – С. 46-54.
19. Эрматов И. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва таракқиёти (умумий ўрта таълим мактабларининг дарсликлари асосида): Филол. фан. бўйича фалсафа докт. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 160 б.
20. Фулом А. Ўзбек тилидан программа ва методик кўрсатма. Сиртки педагогика билим юртлари учун. – Т.: 1940. – 56 б.
21. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Tugon zamin ziyo, 2015. – 44 б.
22. Ҳожиёв А., Решетова Л. Ўзбек тили грамматик терминларининг қисқача изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1980. – 56 б.
23. Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. – Т.: Фан, 1996. – 46 б.
24. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Т.: Фан, 2010. – 256 б.
25. Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослик терминологиясининг ҳозирги аҳволи ҳақида / Ўзбек тили терминологияси ва унинг таракқиёт перспективалари. I Республика терминология конференцияси материаллари. – Т.: Фан, 1986.
26. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1985. – 144 б.
27. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.
28. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Усмонов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: Фан ва технология, 2009.
29. MAMATKULOVA, A. U. N. (2025). SO 'ZNING FUZIYON O 'ZGARISHLARI VA AGGLYUTINATSION HODISALAR. «ACTA NUUZ», 1(1.8. 1), 234-236.